

Date: 19th November-2024

**YURIDIK SOHAGA QIZIQUVCHI TALABALARGA XORIJUY TILLARNI
O'RGATISHDAGI PSIXOLOGIK YONDOSHUV**

Sharapova Dildora Baxtiyarovna

International school of finance and technology science instituti o'qituvchisi,
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), shrapovad@isft.uz

Shermamatova Sabinabonu

International school of finance and technology science instituti Xorijiy tillar (ingliz
tili) yo'nalishi, 1-bosqich, 24-XTA-01 guruhi talabasi, shermamatovasabina@gmail.com

Bahodirova Nozimaxon

International school of finance and technology science instituti Xorijiy tillar (ingliz
tili) yo'nalishi, 1-bosqich, 24-XTA-01 guruhi talabasi, bahodirovanozima2@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada chet tilini o'zlashtirish, xususan yuridik sohaga qiziqvchi
talabalarga xorijiy tillarni o'rgatishdagi yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Psixologiyaning
ta'limdagi o'rni va uning pedagogika hamda yuridik soha bilan aloqasini o'rganiladi.
Maqolada xorijiy tillarni o'qitishda psixologik nazariyalarni qo'llash usullari,
o'qituvchining kasbiy til kompetensiyasi, o'quv metodi va o'quvchilarning individual
xususiyatlarini hisobga olish omillari, ayniqsa, chet tillarini o'rganish motivatsiyasi
muhimligi ta'kidlanadi. Ushbu maqolada ta'limning asosoiy omillari va tarkibiy qismlari
bilan psixologik usullar orqali yuridik soha vakillariga xorijiy tillarni o'rgatishdagi
yondashuvlar tahlili berilgan.

Kalit so'zlar: psixolingivistika, tilshunoslik, yuridik soha, o'qitishning yondashuv va
tamoyillari, o'qish motivatsiyasi, individual yondashuv.

Аннотация. В статье рассматриваются подходы к овладению иностранным языком, особенности преподавания иностранных языков студентам, интересующимся юридической сферой. Изучена роль психологии в образовании и ее связь с педагогикой и правовой сферой. В статье подчеркивается важность методов применения психологических теорий при обучении иностранным языкам, профессиональной языковой компетентности преподавателя, метода обучения и факторов, учитывающих индивидуальные особенности учащихся, особенности мотивации к изучению иностранных языков. В данной статье представлен анализ основных факторов и компонентов образования и подходов к обучению иностранным языкам представителей юридического поля психологическими методами.

Ключевые слова: психолингвистика, лингвистика, правовое поле, подход и принципы обучения, мотивация обучения, индивидуальный подход.

Annotation. The article discusses approaches to mastering a foreign language, features of teaching foreign languages to students interested in the legal field. The role of psychology in education and its connection with pedagogy and the legal field are studied. The article emphasizes the importance of methods for applying psychological theories in teaching

Date: 19th November-2024



foreign languages, the professional language competence of the teacher, the teaching method and factors that take into account the individual characteristics of students, features of motivation to study foreign languages. This article presents an analysis of the main factors and components of education and approaches to teaching foreign languages to representatives of the legal field using psychological methods.

Key words: psycholinguistics, linguistics, legal field, approach and principles of teaching, motivation for learning, individual approach.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda mutaxassislarga xorijiy tillarni o‘rgatish dolzARB ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda yuqori malakali mutaxassis sifatida nafaqat o‘z sohasida professional bo‘lish, balki chet tillarini ham puxta egallahni ham anglatadi. Chet tillarini yurdik soha vakillari va yuridik sohaga qiziquvchilarga o‘rgatish ta’limning ustuvor vazifasiga aylanib ulgurdi. Xorijiy tillarni o‘rgatishdagi asosiy ta’lim yondoshuvi – bu, psixologik yondoshuv hisoblanadi. Xorijiy tillarni o‘rgatishda psixologik yondashuvlardan oqilona foydalanish o‘z navbatida yuridik soha vakillariga individual hamda professional yondoshuv zarurligini nazarda tutadi.

Ma’lumki, psixologiya va til o‘qitish o‘zaro bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Xususan, ushbu sohaning taniqlari olimlari pedagogikaning psixologik tomoni bilan qiziqib, ta’lim jarayonini samarali bo‘lishiga harakat qilishgan. Jumladan, J.Maneska, G.Ollendorff, X.Swift, X.Palmerning xorijiy tillarni o‘qitishdagi psixologik nazariyalari va yondashuvlarini keltirib o‘tish mumkin [5, 245-249]. Mazkur yondoshuv – psixolingvistika termini bilan ifodalanib, uning ahamiyati hozirgi kunda bizning zamonaviy jamiyatimiz chet tillarini o‘zlashtirishga bo‘lgan katta ehtiyojni anglab yetdi, chunki bu yuqori malakali mutaxassis uchun yangi keng istiqbollarni olib beradi, uning raqobatbardoshligini oshiradi, kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan turli xil xorijiy axborot manbalarini taqdim etgan holda hayotning barcha jahbalarida dunyoqarashni kengaytiradi. Yuridik sohaga qiziquvchi talabalar uchun ham chet tilini oson va samarali o‘rganish jarayonida psixologik tamoyillarga asoslanish katta ahamiyat kasb etadi. Yuridik sohaga qiziquvchi talabalar uchun xorijiy tillarni o‘rganish nafaqat professional rivojlanish, balki global muloqot va madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlash uchun ham muhimdir. Jumladan, xalqaro maydonda sodir bo‘layotgan eng muhim jarayonlarda huquqiy jihatdan ishtirok etish hamda ulardan xabardor bo‘lish, shuningdek, xalqaro qonun hujjalardan foydalana olish bilan bir qatorda bilimlarini yanada kengaytirish jarayonida ham chet tili alohida ahamiyatga ega. Xorijiy tillarni bilish orqali xalqaro xorijiy tajribalarni o‘rganish, o‘z bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirish imkoniyatiga ega bo‘lgan kadrlar – bugungi kunda sifatlari kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj va talab darajasini o‘zida ifoda etib, zamonaviy dunyoda ilmiy va malakaviy salohiyatni namoyon etadilar. Yuridik sohaga qiziquvchi talabalarga xorijiy tillarni o‘rganishda psixologik yondoshuvning ahamiyati va metodlarini quyidagi mulohazalarda ko‘rib chiqimiz.

Psixologik yondoshuv xorijiy til o‘rganishda talabalarning motivatsiyasini oshirish, o‘z-o‘ziga ishonchini mustahkamlash va o‘rganish jarayonida stressni kamaytirish uchun

**ENSURING THE INTEGRATION OF SCIENCE AND EDUCATION ON THE BASIS OF
INNOVATIVE TECHNOLOGIES.
International online conference.**

Date: 19th November-2024



zarurdir. Yuridik sohaga qiziquvchi talabalarda ushbu yondoshuv ko‘pincha quyidagi psixologik omillar bilan amalga oshiriladi:

- Motivatsiya – talabalarning xorijiy tilni o‘rganishga bo‘lgan qiziqlishi va motivatsiyasi ularning muvaffaqiyatini belgilaydi. Ularni professional maqsadlar bilan bog‘lash, masalan, xalqaro huquq yoki yuridik konsultatsiya sohasida ishslash, motivatsiyani oshirishi, xalqaro maydonda soha yetakchisi bo‘lishi uchun ishinchini hosil qilishda muhim omil sanaladi;

- O‘z-o‘ziga ishonch – xorijiy tilni o‘rganishda o‘z-o‘ziga ishonch juda muhimdir. Talabalar o‘z bilimlarini amaliyatda qo‘llashda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin, shuning uchun ularni qo‘llab-quvvatlash va muvaffaqiyatlarini ta’kidlash zarur. O‘ziga bo‘lgan ishonchning mustahkamligi hamda ishonchning kuchayishi nafaqat yuridik soha vakillarining, shuningdek, boshqa soha vakillarining o‘z faoliyat yo‘nalishida ham muvafraqqiyatlarga erishish uchun muhim bo‘lgan omildir;

- Stress va xavotir – yuridik ta’lim jarayoni ko‘pincha stressli bo‘ladi. Talabalar xorijiy tilni o‘rganish jarayonida qo‘sishma bosim his qilishlari mumkin. Stressni kamaytirish uchun qulay va yaratuvchan muhit yaratish muhimdir [2, 146-148]. Aynan stress hamda xavotir yuqorida keltirib o‘tilgan ikki omil, ya’ni motivatsiya va o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchni ham so‘ndirishi mumkin bo‘lgan faktor hisoblanadi. Stress va xavotirni yengish esa, malakali mutaxassis sifatida rivojlanishning kafolatidir.

Jumladan, **o‘qitishdagi psixologik yondoshuv** bir qator omillarni o‘z ichiga oladi. Xususan:

1. Interaktiv metodlar – bugungi kunda interaktiv usullardan foydalanish ma’lum o‘rganilayotgan sohaga kirishib ketishni, soha haqida kengroq ham tezroq tushinib olishni ta’minlaydi. O‘z navbatida, yuridik soha talabalariga xorijiy tilni o‘rganishda interaktiv metodlardan foydalanish, masalan, rolli o‘yinlar, muhokamalar va guruh ishlarini tashkil etish, ularning faolligini oshiradi va o‘zaro muloqotni rivojlantiradi. O‘zaro muloqot hamda fikr almashish natijasida o‘rganish ancha samaraliroq bo‘ladi.

2. Individual yondashuv – har bir talabaga individual yondashuvni amalga oshirish, ularning o‘rganish uslublarini inobatga olish va shaxsiy qiziqliklariga mos ravishda dasturlarni ishlab chiqish muhimdir. Har bir shaxs alohida dunyoqarash, alohida fikrlash qobiliyatiga ham o‘zlashtirish darajasiga ega. Shuni aytishimiz mumkinki, shaxsnинг potensialiga hamda uning imkoniyatidan kelib chiqib individual yondashish uning yangi sohani o‘rganishga bo‘lgan qobiliyatini rivojlantiradi.

3. Teskari aloqa – o‘qituvchilar talabalar bilan doimiy teskari aloqa olib borishi, ularning muvaffaqiyatlarini baholashi va rivojlanish yo‘nalishlarini ko‘rsatishi kerak. Bu talabalarни yanada rag‘batlantiradi, o‘rganilayotgan yangi sohaga bo‘lgan qiziqlishini oshiradi.

4. Psixologik treninglar – stressni boshqarish va o‘z-o‘ziga ishonchni oshirish uchun psixologik treninglar va seminarlar tashkil etish talabalar uchun foydali bo‘ladi. Mazkur treninglar orqali talabalar yangi sohani o‘rganishda duch kelayotgan muammoli

**ENSURING THE INTEGRATION OF SCIENCE AND EDUCATION ON THE BASIS OF
INNOVATIVE TECHNOLOGIES.
International online conference.**

Date: 19th November-2024

vaziyatlari hamda qiyinchiliklari haqida gapira olishadi. Bu esa o‘z navbatida, atrofdan ualrn ni yengish borasida fikr almashish, yangi tajribalarni sinab ko‘rish imkoniyati beradi.

5. Terminlarni amaliy qo‘llash yondashuvi – yuridik sohada foydalaniladigan maxsus terminlarni o‘rganish talabalar uchun qiyin bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, yuridik sohadagi maxsus terminlarning chet tilida ifodalanilishini eslab qolish o‘ziga yarasha murakkab [4, 35-39]. Yuridik terminlarni amaliyotda ishlatish orqali talabalar ularni yaxshiroq eslab qoladilar va o‘z bilimlarini mustahkamlaydilar. Ushbu faktlar yuridik sohaga qiziquvchi talabalarga xorijiy tillarni o‘rgatishda psixologik yondoshuvning ahamiyatini ko‘rsatadi va ta’lim jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi.

Yuridik sohaga qiziquvchi talabalarga xorijiy tillarni o‘rganishda psixologik yondoshuvning ahamiyati katta. Motivatsiya, o‘z-o‘ziga ishonch va stressni boshqarish kabi omillarni hisobga olgan holda, o‘qituvchilar samarali va qulay ta’lim muhitini yaratishi mumkin. Bu esa talabalarning xorijiy tillarni muvaffaqiyatli o‘rganishlariga yordam beradi va ularni kelajakdagi professional faoliyatga tayyorlaydi.

Amalga oshirilgan tadqiqotlardan shunday xulosa qilish mumkin-ki, yuridik sohaga qiziquvchi talabalarga chet tillarini o‘qitish, nafaqat ta’lim berishning asosiy tamoyillariga, balki psixologiya fanining tamoyillarini ham qo‘llashga asoslangan bo‘lsa, samaraliroq bo‘ladi. Chunki ta’lim aqliy faoliyat bilan chambarchas bog‘liq. Psixolog olima A.K.Shamshetova ta’kidlaganidek, xorijiy til o‘qituvchilari yuridik sohaga qiziquvchi talabalarga xorijiy tillarni o‘rgatishda psixologik individual xususiyatlarini hisobga olib, ularga mos keladigan psixogimnastika mashqlarini to‘g‘ri tashkil etib borishlari, dars samaradorligini oshiribgina qolmay, talabalarda pozitiv emotsiyonal munosabatlarni ham shakllantirib borishi ta’lim jarayonoiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shunday ekan, yuridik sohaga qiziquvchi talabalarga ta’lim berishda psixologik yondoshuvdan foydalanish kadrlarning sifatini oshirish, xorijiy tillarni samarali o‘rgatish vositasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Arif, M. The application of psychology in teaching foreign languages. Retrieved from <http://journal.unbariac.id/index.php/JIP/article/view/74> - 2012.
2. Bozorova G.T. Teaching english as a means of communication. JournalNX – A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 146–148. <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/15193> - 2021.
3. Kudysheva, A. A. Psychology of teaching foreign languages. 2010.
4. Rakhmanberdiyeva K.S. Analysis of independent learning technology in foreign language teaching to students. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2021 – 2(3), 35-39.
5. Rustamova B., Soliyeva D. Xorijiy tillarni o‘qitishda psixologik bilimlarning ahamiyati. Retrieved from <https://cyberleninka.ru/article/n/xorijiy-tillarni-o-qitishda-psixologik-yondashuv-katta-yoshli-talabalar-misolida>
6. Baxtiyarovna, S. D. (2022). Xotira: mustahkamlash yo’llari, usullari va vositalari. Scientific Impulse, 1(4), 328-333.

Date: 19th November-2024

7. Baxtiyarovna, S. D., Gavhar, G., & Jasmina, N. (2022). Pedagogik faoliyatda kreativ yondoshuv. Scientific Impulse, 1(3), 385-388.
8. Baxtiyarovna, S. D. Shukurullo oglu, NJ (2022). Tibbiyot xodimlarining hissiy-emotsional xususiyatlari. Scientific Impulse, 1(3), 439-443.
9. Якубова, Г. А., & Олимжонова, З. Б. Қ. (2022). Мактабгача ёшдаги болаларнинг психофизиологик ривожланиши. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(5), 681-689.
10. Ziynat, O., & Nafosat, S. (2023). Psixologiyada ong va ong haqidagi nazariyalar. Scientific Impulse, 1(8), 857-860.

INTERNET MATERIALLARI:

- <https://cyberleninka.ru/article/n/xorijiy-tillarni-o-qitishda-psixologik-bilimlarning-ahamiyati>
- https://oriens.uz/media/journalarticles/63_Bozorova_Gulmira_Tangriberdiyevna_452-457.pdf
- <https://cyberleninka.ru/article/n/xorijiy-tillarni-o-qitishda-psixologik-bilimlarning-ahamiyati>